

BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA SHARQ VA G'ARB ALLOMALARINING QARASHLARIDAN FOYDALANISH

Jumanova Shahnoza Ikromjonovna
Qo'qon universiteti dotsenti, v.b (PhD)

Mullaboyeva Gulbahor
Qo'qon universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda Sharq va G'arb allomalari qarashlarini hisobga olish muhim ekanligi haqida so'z boradi. Sharq va G'arb falsafalari bolaning rivojlanishi va o'qishi haqida qimmatli fikrlarni taqdim etgan. Olingan xulosalar maktabda va hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni shakllantirishga yordam berishi, bolalarining individual ehtiyojlari va ta'lim uslublarini ham hisobga olinishi muhim ekanligi misollar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, bola rivojlanishi, Sharq falsafasi, G'arb falsafasi, qiyosiy ta'lim, yaxlit ta'lim, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, madaniy kompetentsiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о важности учета взглядов восточных и западных ученых при подготовке детей к школьному обучению. Восточная и западная философии предоставили ценную информацию о развитии и обучении детей. Полученные выводы выделены на основе примеров, которые помогают формировать навыки и знания, необходимые для успеха в учебе и жизни, и при этом важно учитывать индивидуальные потребности и стили обучения детей.

Ключевые слова: образование, развитие ребенка, восточная философия, западная философия, сравнительное образование, целостное образование, социально-эмоциональное развитие, культурная компетентность.

ABSTRACT

This article talks about the importance of taking into account the views of Eastern and Western scholars when preparing children for school education. Eastern and Western philosophies have provided valuable insights into child development and learning. The obtained conclusions are highlighted on the basis of examples that help to form the skills and knowledge necessary for success in school and life, and that it is important to take into account the individual needs and learning styles of children.

Keywords: education, child development, Eastern philosophy, Western philosophy, comparative education, holistic education, socio-emotional development, cultural competence.

Jamiyatimizda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish o'sib kelayotgan yoshlarni ma'nan yetuk qilib tarbiyalash, barcha davrlarda bo'lgani kabi bugungi kunda ham davlatimiz oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda tarbiyalanuvchilarning maktabga tayyorgarlik darajalariga qo'yilayotgan jiddiy talablar bu borada zaruriy nazariy, amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqazo etmoqda. Mamlakatimizda ta'lim taraqqiyotiga bo'lgan e'tibor yuksak darajada rivojlanayotgan bugungi zamonda, maktabgacha ta'lim sohasida ham tub burilishlar davri yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Maktabgacha yosh davri inson tafakkuri shakllanishidagi eng muhim bosqich sifatida olimlar tomonidan aniq dalillarga asoslanib e'tirof qilinganligi bois, ushbu yoshdagi tarbiyalanuvchilarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Xususan, yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi".¹ Ushbu so'zlarning isboti sifatida mazkur yo'nalishda ko'plab islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3261-sonli Qarori, Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5198-sonli Qarori asnosida yangi Maktabgacha ta'lim vazirligi o'z faoliyatini boshladi va keyingi qadamda Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3955-sonli Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda - Konsepsiya) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 2030 yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar

¹ <http://ma.rifat.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar" kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020

va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.¹ Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchining maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi.

Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra «Maktabga tayyorgarlik» tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yunalishlarini o'z ichiga oladi:

- jismoniy,
- shaxsiy (ruxiy),
- aqliy
- maxsus tayyorgarlik.

Jismoniy tayyorgarlik tarbiyalanuvchining sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va ko'rish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izoxlanadi. Shaxsiy tayyorligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga, shaxsiy madaniyatni shakllanganligini nazarda tutadi. Aqliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqilligining, o'zini-o'zi nazorat qilishga, hamda o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab kolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o'z ichiga oladi.

Tarbiyalanuvchining maktabda ta'lim olishi samarasi uning ona tilini bilishiga va nutqni qanchalik rivojlanganligiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Chunki butun o'quv faoliyati shularga, ya'ni nutkiy mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrlashi, til rivojlanganligi yutuqlarida erkin foydalana olishi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o'z tasavvurini izohlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosiga quriladi. Shuningdek, bolaning maktabda ta'lim olishi uchun amaliy intellekt rivoji ya'ni, uning namunani chizish, aytib turiladigan bayoniy topshiriqni bajarishi ham muhim sanaladi. Va nihoyat, maxsus tayyorgarlik bolani savodxonlikka o'rgatish va uning maktabning 1 sinf o'quv dastur materialini yetarli darajada egallash haqidagi tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi. Shunga ko'ra zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotda (A. V. Zaparojets, A. A. Venger, G. M. Lyamina, G. G. Petrogenko, J. V. Taruntayeva va boshqalar) tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsining rivojlantirish sifatida aniqlanadi va ikkita o'zaro bog'langan jihatlarda: «Maktabga o'qishga umumiy psixologik tayyorgarlik» va «Maxsus tayyorgarlik» tarzida ko'rib chiqiladi.

¹ O.Xolmamatov . Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning konseptual asoslari moduli bo'yicha ishchi o'quv-mavzu reja va dasturi / Samarqand 2019 . 3-bet

Maktabga umumiy tayyorgarlik MTTining maktabgacha tarbiya yoshidagi tarbiyalanuvchilarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maqsadga muvofiq ta'lim-tarbiyaviy ishning muhim yakuni sifatida namoyon bo'ladi. Maktabga umumiy tayyorgarlik tarbiyalanuvchining maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivolanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharoitlariga va o'quv materialining ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi.

Abdulla Avloniy tarbiyaga alohida e'tibor berib: «Tarbiya yo hayot yo momot yo najot yo halokat yo saodat yo falokar masalasidir»¹- degan edi.

Ilm-ulug' hikmat, ilm-iymon, e'tiqod. Demak, din asosini ham ta'lim ilm tashkil etadi. Beshikdan qabrgacha ilm izla kabi ibratli so'zlar ham hayotiy tajriba asosida yuzaga kelgan deb ayta olamiz.

Islom dini, shariat va fiqhiy masalalarning ishlanishida dunyo tan olgan olimlardan Imom al-Buxoriy, Abu Mansur al-Moturudiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom at-Termiziy, Kaffol ash-Shoshiy, az-Zamaxshariy, Abu Bakr al-Xorazmiy, Yusuf Hamadoniy, sof diniyyo'nalishda ta'lim-tarbiya tizimini olib borishgan Madrasalarda ta'lim-tarbiya olib borilgan. Al-Farobiy, Ibn Sino, alBeruniy, Abu Abdulloh al Xorazmiy, Yusuf Xos Xojib, Ismoyil Juzjoniy, Ahmad Yassaviy, Al-Farobiy kabilar ma'naviy va axloqiy qarashlar doirasida ta'limtarbiya asoslarini ilmiy ishlab chiqqanlar. Farobiy birinchi bo'lib ta'lim-tarbiyaga ta'rif bergan. Ta'lim - so'z va o'rganish bilan amalga oshiriladi. Tarbiya-amaliyot, ish tajriba bilan ya'ni shu yo'l orqali amalga oshiriladi. Har kimki ilm hikmatini desa, uni byoshligidan boshlasin va ahli ilmdan mol dunyosini ayamasin.

Beruniy inson kamolotida ilmiy bilimlarni egallash usullari yo'llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchiga bilim berishda u:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsa yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- yangi mavzularni qiziqarli asosan, ko'rgazmali bayon qilishga e'tibor berish kerakligini uqtiradi.

Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari o'z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lim-tarbiyasini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga egadir.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamoa bo'lib maktabda o'qitish zarurligini ko'rsatadi va ta'limda quyidagilarga rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

- ✓ Bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilmaslik;
- ✓ Ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- ✓ Mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- ✓ Bilim berishda bolalarning mayl, qiziqishi va qobiliyatini hisobga

olish;

✓ O‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borishni ta’kidlaydi.

Ibn Sino bola ta’lim-tarbiyasi bilan avvalo ota-ona shug‘illanishi kerak deydi. Amir Temur va Temuriylar davrida ta’lim-tarbiya masalalari davlat va hokimiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri deb baholangan. Amir Temur,

Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Sakkokiy, Lutfiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir, Zahiriddin Muhammad Bobir kabilarning ilm-ma’rifatni rivojlantirishga qo‘shgan xissasi e’tiborga loyiqdir. Shu bois, mazkur madaniy va ma’rifiy taraqqiyot davri ta’lim -tarbiya taraqqiyotining ikkinchi bosqich hisoblanadi.

Tasavvuf tariqatlari va ularda bag‘rikenglik, insonga mehrlil munosabat qoidalari inson komilligi va tariqatlar tizimidagi tarbiya jarayonining muhim omillaridan deb belgilangan. Naqshbandiya, qubraviya, yassaviya, mavlaviya, cheshtiya va suxravardiya tariqatlari doirasida ta’lim-tarbiya g‘oyalari tarannum etilgan.

Mahdumi A’zam, Muhammad Shaybonixon, Abulg‘oziyxon, Turdi Farg‘oniy, So‘fi Olloyor, Maxtumquli, Maxmur, Gulxaniy, Munis Xorazmiy, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Ahmad Donish kabilarning bag‘rikenglik va dunyoviy tafakkur rivojidadagi o‘rni ular qarashlaridagi gumanistik g‘oyalar tizimi bilan belgilanadi. Ma’rifatparvarlik yo‘nalishidagi ishlangan bag‘rikenglik qarashlari O‘rta Osiyodagi islom madaniyati tarkibidagi to‘rtinchi bosqich mazmunini belgilab beradi.

Turkiston madaniy hayotida insonsevarlik g‘oyalarning rivojlantirilishi ta’lim-tarbiya bilan uzviy bog‘langan holda targ‘ib qidingan. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Rizouddin ibn Fahriddin, Avaz O‘tar, Fitrat, Sadridin Ayniy, X. X. Niyoziy, Abdulla qodiriy kabilari ijodida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari o‘z zamonasining eng ilg‘or g‘oyalari tizimidan mustahkam o‘rin olgan edi. Bu davr ta’lim-tarbiya ziyosining ilmiy-nazariy ishlanishida beshinchi bosqich hisoblanadi.

G‘arb olimlarining qarashlarida xususan, Qadimgi Yunoniston va Gretsiyada madaniyat maktabi va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlandi. Gretsiyada bolalar 7 yoshga yetguncha uyda tarbiyalanar edilar. Platonning fikricha bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan taayinlab qo‘yilgan tarbiyachilarning rahbarligida maydonchalarda turli o‘yinlar bilan shug‘illanadilar. Afinada jismoniy, ma’naviy jihatdan etuk kishini u yerda eng ko‘rkam va barkamol inson hisoblashgan. Platon o‘yinlarni maktabgacha tarbita vositasi deb hisoblab, ularga katta ahamiyat berdi, shuningdek, bolalarga hikoya qilib beriladigan materiallarni sinchiklab, tanlash kerakligini aytadi.

Ya. A. Komenskiy ham o‘zining “Buyuk didaktika” hamda “Onalar maktabi” asari orqali maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish asoslarini

bolalar yosh xususiyatlarini tabiiylik prinsipiga amal qilib davrlarga bo'lgan. 'Onalar maktabi' asarida maktabgacha tarbiyaning mukammal tizimini ishlab chiqish, hamma tarbiyalanuvchilarga aniq bilimlar berishni talab etadi deb ta'kidlaydi.

K.D.Ushinskiy u bolalarning ilk yoshlik chog'idan boshlab xalq madaniyati bilimlarini o'zlashtirilishini ona tilini egallab olishini, xalq og'zaki ijodi asarlari bilan tanishishni talab qilardi. U o'zining "Boshlang'ich ta'lim usullari" asarini yozdi. Unda ta'limning bolalar kuchiga mosligi va izchilligi hamda ta'limning ko'rsatmaliligi, ongliligi va puxta o'zlashtirilishiga e'tiborini qaratadi. Har bir davrda ta'lim berish jarayonlari rivojlanib yuksalib boraveradi.

Xulosa qilib aytganda, bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorlikda ish yuritishi ijobiy natija beradi.

Bola tarbiyasi xususida sharq va g'arb olimlari, allomalari o'zlarining fikrlari qarashlarini bayon etib ketishgan. 1934-yilda takomillashtirilgan "Tarbiyalash programmasi" nashr etildi. Unda bolalar bog'chasida bolalarning ko'p qirrali hayotini tashkil etish va uning mazmuni masalalariga katta e'tibor berildi. Qur'oni Karim va Hadislarda ham ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida to'htalib o'tilgan. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchining sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim tarbiya to'g'risida"gi Qonuni O'RQ-595 Toshkent shahri, 2019 yil, 16-dekabr
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 iyuldagi "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 487-son qarori.
3. Mirziyoyev Sh. M "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" – T; O'zbekiston, 2017, 146-bet.
6. Ikromjonovna, J. S. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING O'YIN KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 586-588..
7. Xurshidaxon, A., & Ikromjonovna, J. S. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI ATROF-MUHITNI ASRAB-AVAYLASH VA G'AMXO'RLIK KO'RSATISHGA O'RGATISH. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 551-553..
8. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548..

9. Jumanova, S. (2022). Landscape in Usmon Azim" Bakhshiyona". EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 169-172.
10. Yuldasheva Dilafroz, Jabborova Marifatxon, Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, & Maziyyayeva Muqaddasxon (2022). MAKTABGACHA TA'LIMGA YANGICHA YONDASHUV. Central Asian Research
11. O.Xolmamatov . Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning konseptual asoslari moduli bo'yicha ishchi o'quv-mavzu reja va dasturi / Samarqand 2019 . 3-bet